



1. Bitim Taraflari.

Сотувчи:	Сотиб олувчи:
Sotuvchining rekvizitlari Sotuvchi nomidan va uning topshirig'i bo'yicha Brokerlik idorasi raqami: 1571 Brokerlik idorasi nomi: "O'zbekneftegaz" AJ Topshiriq shartnomasi asosida faoliyat yurituvchi treyderning F.I.Sh.: Эгамбердиев Шерзодбек Шавкатбек угли Tizimdagi buyurtma raqami: 22388433 Nomi: "O'ZBEKNEFTGAZ" AJ Manzili: г.Ташкент Яшнабадский район города Ташкента ,ул. Истикбол,д. 21 Telefon raqamlari: +998712331172 Faks: (+99871) 207-72-27 STIR: 200837914 Hisobraqami: 20210000600124339029 Bank: Уз ПСБ г.Ташкент Яшнабадское отд. MFO: 00432 OKONX: 84111 FSHR: 505270	Sotib oluvchining rekvizitlari Sotib oluvchi nomidan va uning topshirig'i bo'yicha Brokerlik idorasi raqami: 1601 Brokerlik idorasi nomi: "НАМКOR-KIMYOSERVIS" МЧЖ Topshiriq shartnomasi asosida faoliyat yurituvchi treyderning F.I.Sh.: Нурмухамедов Сарвар Мухаммад Рустам угли Tizimdagi buyurtma raqami: 22389411 Nomi: Махам-Чирчиқ АЖ Manzili: Ташкентская область г. Чирчик ул.Ташкентская, 2 Telefon raqamlari: 370 715 32 29 Faks: 715 25 20 STIR: 200941518 Hisobraqami: 20210000100128573001 Bank: г. Чирчик, Чирчикский фил. ПСБ MFO: 00863 OKONX: 20151 FSHR: 582
Bitim bo'yicha to'lovlarini amalga oshirish uchun rekvizitlar: "O'zRTXB" AJ Manzili: Toshkent sh., Bobur ko'chasi, 77. STIR: 200933985, MFO: 00491, "Trastbank" XAB, Hisobraqami: 20208000300600257009 Telefon raqami: 71 207-00-33, Faks: 71 213-33-19	

2. Shartnoma predmeti.

2.1. Birgalikda "Taraflar" deb nomlanuvchi Sotuvchi va Sotib oluvchi, elektron birja savdolari natijalari bo'yicha 25.01.2022 12:01:47 dagi "20220125"- sonli savdo bayonnomasi asosida Sotib oluvchi quyidagi tovar uchun haq to'lashi va qabul qilib olishi, Sotuvchi esa ushbu tovarni yetkazib berishi to'g'risida mazkur shartnomani tuzdilar:

Tovarning nomi:

Сера техническая, АО "Узбекнефтегаз" аннул.объем

Kontrakt raqami	O'lchov birligi	Birlik miqdori	Birlik uchun narx	Birlik uchun boshlang'ich narx	Lot uchun narx	Lot uchun boshlang'ich narx	Shartnoma summasi	Valuta	Qadoqlash turi
9952351	тонна	280.00	972000.00	105035.00	972000.00	105035.00	272160000.00	сум	без упаковки
Sotuvchi uchun vositachilik yig'imi						Xaridor uchun vositachilik yig'imi			
563371.20						563371.20			

3. To'lov muddatlari, yetkazib berish shartlari va muddatlari.

- 3.1. Sotib oluvchi shartnoma birjada ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin **5 ish** kuni mobaynida tovar uchun haq to'laydi.
 3.2. Sotuvchi birjada bitim uchun 100% haq to'langandan keyin **22 ish** kuni mobaynida yetkazib berishning asosiy shartlariga ko'ra tovarni yetkazib beradi.

Ishlab chiqaruvchi mamlakat

Узбекистан

Mahsulot joylashgan manzil

EXW
САМОВЫВОЗ

Asosiy yetkazib berish shartlari

Республика Узбекистан, Кашкадарьинская обл., Мубарекский район, Мубарекский ППЗ

Lotdagi miqdor (o'lchov birligida)

1

Alohida shartlar

Отгрузка товара осуществляется автотранспортом, полувагонами или ж д цистернами, предоставляемым Покупателем. Максимальная норма недогруза на 1 автотранспорт, полувагон или ж д цистерну составляет менее 20% от ее объема. Остатки менее 20% от объема автотранспорта, полувагона или ж д цистерны не считаются на выборкой (недопоставкой) и штрафные санкции по ним не применяются. Согласно настоящего режима работы ж д служб РУз, покупатель оплачивает за свой счет все расходы, связанные с транспортировкой товара с момента его поставки по условиям контракта. Погрузка товара осуществляется за счет Продавца.

3.3. Bitim bajarilishini ta'minlash uchun Taraflar "O'zRTXB" AJga xizmat ko'rsatuvchi bankdagi "O'zRTXB" AJ Hisob-kitob kliring palatasining (bundan keyin HKKP) ikkilamchi hisobvarag'iga quyidagi miqdorda zakalat pullarini kiritdilar:

Sotuvchi: birja savdolariga (savdo kunida) qo'yilgan mahsulotning umumiy bahosidan **10 foiz**;

Sotib oluvchi: nazarda tutilgan bitim hajmidan **10 foiz**.

Kafolat ta'minoti mablag'lari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- birja savdolarining elektron tizimida mazkur shartnoma amalga oshirilgan (tuzilgan)dan keyin tasdiqlangan tarifda belgilangan miqdorda birja foydasiga ushlab qolinuvchi vositachilik yig'imi;

- shartnoma tuzilishi va bajarilishini ta'minlash maqsadida Taraflar tomonidan kiritiladigan moliyaviy zakalat.

3.4. Sotib oluvchi tomonidan mazkur shartnoma bo'yicha pul mablag'lari to'liq hajmda kelib tushgandan so'ng, bir **ish** kuni mobaynida HKKP Sotuvchiga (yoki sotuvchi brokeriga) to'langan bitimlar reyestrini yuboradi va reyestrda belgilangan mahsulotlar hajmlari doirasida tovar uchun to'lovni kafolatlaydi.

3.5. HKKP tomonidan Sotuvchiga to'langan bitimlar reyestrining yuborilishi Sotuvchiga mazkur Shartnomada belgilangan hajmda va muddatda tovarni yetkazib berish majburiyatini yuklaydi.

Yetkazib berishni tashkillashtirish uchun Sotuvchi shartnomada ko'rsatilgan yetkazib berish muddatida, ammo mazkur muddat tugashidan kamida uch ish kuni oldin Sotib oluvchiga tovarlarni topshirish uchun tayyorligi to'g'risida, tovar yuklab jo'natiladigan kun (kunlar)ni ko'rsatgan holda xabarnoma yo'llaydi.

Sotuvchi tomonidan tayinlangan tovar yuklab jo'natiladigan kuni Sotib oluvchi, zarur holdarda, o'z vakili ishtirokini ta'minlashi va agar birja shartnomasi shartlari bilan tovarning Sotib oluvchi transport vositasida yuklab jo'natilishi nazarda tutilgan bo'lsa – bunday transport vositasi bo'lishini ta'minlashi shart.

3.6. Sotib oluvchi vakili o'ratilgan vaqtda yetib kelgandan so'ng, Sotuvchi zudlik bilan, sotib oluvchi vakili omborga kelganligini uning Moddiy qimmatlik mahsulotlar olish uchun ishonchnomasiga belgi (muhr yoki tamg'a) qo'yib berish yo'li orqali tasdiqlashga majbur. Sotib oluvchi vakilida shartnomada ko'zda tutilgan, mahsulotni yuklash uchun zarur bo'lgan hujjatlar bo'lmagan taqdirda (to'liq yoki qisman), sotuvchi yetishmayotgan hujjatlarni ko'rsatgan holda yozma belgi kiritishi lozim.

3.7. Sotuvchi tomonidan tovarning yetkazib berilganligi va uning Sotib oluvchi tomonidan tanlab olinganligi fakti Sotib oluvchi va Sotuvchi tomonidan imzolangan yuklab jo'natish hujjati (tovar-transport yuk xati) nusxasi yoki hisobvara-faktura nusxasi bilan tasdiqlanadi. Tovar temir yo'l transporti orqali yuklab jo'natilganda Sotuvchi tomonidan tovarning yetkazib berilishi va uning Sotib oluvchi tomonidan tanlab olinganligi fakti jo'natuvchi stansiya shtempeli qo'yilgan temir yo'l yukxati nusxasi va unga ilova qilingan Sotuvchi brokerining imzosi va muhri qo'yilgan hisobvara-faktura nusxasi bilan tasdiqlanadi. Yuklab jo'natish hujjatlari Sotuvchi brokeri tomonidan HKKPga tovar yuklab jo'natilgan paytdan boshlab uch ish kundan kechiktirmay, biroq shartnomada nazarda tutilgan so'nggi yetkazib berish kunidan keyingi kundan kechiktirmay taqdim qilinadi.

3.8. Tovar yuklab jo'natilganligini tasdiqlaydigan hujjatlar taqdim qilinishi HKKP uchun Sotuvchi tomonidan bajarilgan majburiyatlar hisobiga mablag'lar

o'tkazishga asos va majburiyat bo'lib xizmat qiladi. Sotuvchi tomonidan tovar yuklab jo'natilganligini tasdiqlaydigan hujjatlar (EBHR) taqdim qilingan vaqtdan boshlab bir ish kuni mobaynida HKKP Sotuvchi tomonidan bajarilgan majburiyatlar miqdoridagi moliyaviy mablag'larni HKKPning talab qilib olinguncha ikkilamchi depozit hisobraqamidan Sotuvchining bankdagi hisobraqamiga o'tkazadi.

4. Birja bitimlarining yopilishi.

4.1. Birja bitimi HKKP tomonidan yopiladi va birjaning majburiyatlar bajarilishini ta'minlash bo'yicha majburiyatlari quyidagi holatlarda bitimlar yopilishi orqali bekor bo'ladi:

- Sotuvchi yoki unga xizmat ko'rsatuvchi birja a'zosi tomonidan Sotuvchining tovarni to'liq hajmda yetkazib berish bo'yicha majburiyatlari bajarilganligini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim qilinishi – tovarni yetkazib berish bo'yicha majburiyatlar bajarilganligini tasdiqlovchi hujjat taqdim qilingan paytdan boshlab bir ish kuni mobaynida;

- har ikki Taraf tomonidan tovarni yetkazib berish (yuklab olib chiqish) bo'yicha majburiyatlar bajarilmagan taqdirda, Shartnomani muddatidan oldin bekor qilish to'g'risida va o'zaro e'tirozlar mavjud emasligi to'g'risida ariza taqdim qilinishi – jarima sanksiyalari qo'llanilmasdan, shartnomaning bekor qilinishi to'g'risidagi ariza taqdim qilingan paytdan boshlab bir ish kuni mobaynida;

- Sotuvchi tomonidan tovarni yetkazib berish bo'yicha majburiyatlar va Sotib oluvchi tomonidan uning yuklab olib chiqilishi bo'yicha majburiyatlar tovarga xos bo'lgan va tovarni yuklab jo'natishda ushbu majburiyatlar to'liq hajmda bajarilishiga to'sqinlik qiladigan texnologik yoki boshqa sabablarga ko'ra to'liq hajmda bajarilmaganligi, agar mazkur Shartnomaning alohida shartlari bilan Taraflarning ushbu asoslarda javobgarlikdan ozod qilinishlari nazarda tutilgan bo'lsa – jarima sanksiyalari qo'llanilmasdan, har ikki Taraf tomonidan bitimning yopilishi to'g'risidagi ariza taqdim qilingan paytdan boshlab bir ish kuni mobaynida;

- Taraflarga jarima sanksiyalari qo'llanilmasdan, agarda shartnoma bilan belgilangan yetkazib berish muddati tugagan paytdan boshlab uch ish kuni mobaynida shartnoma taraflari tovarni yetkazib berish (yuklab olib chiqish) bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi haqida taraflarning bir-biriga e'tirozi mavjud bo'lmagan taqdirda;

- yetkazib berish muddati tugagandan so'ng, agar yuklab olib chiqilmagan / yuklab jo'natilmagan tovar summasi mazkur Shartnoma summasidan belgilangan zakalat pullari miqdoridan kam bo'lsa, jarima sanksiyalari qo'llanilmasdan;

- Arbitraj komissiyasi tomonidan nizolarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha qarori bilan.

4.2. Birja bitimi Taraflar tomonidan Shartnomaning muddatidan oldin bekor qilinishi to'g'risida ariza taqdim qilinishi asosida yoxud mazkur Shartnoma bilan belgilangan yetkazib berish muddati tugagan paytdan boshlab uch ish kuni mobaynida e'tirozlar taqdim qilinmaganligi natijasida yopilgan taqdirda, Sotuvchi va Sotib oluvchi majburiyatlari bajarilishini ta'minlash maqsadida ularning birjadagi shaxsiy hisob varaqlarida blokirovka qilingan moliyaviy mablag'lar boshqa birja bitimlari bo'yicha kafolatli ta'minot mablag'lari sifatida foydalanish uchun bo'shatiladi.

4.3. Taraflarning mazkur Shartnoma majburiyatlarini bajarish bo'yicha o'zaro e'tirozlari Arbitraj komissiyasi tomonidan "Arbitraj komissiyasi to'g'risida"gi Nizomda nazarda tutilgan shartlarga rioya qilingan holda, mazkur Shartnoma bilan nazarda tutilgan tovarni yetkazib berish muddati tugagan paytdan boshlab uch ish kunidan kechiktirilmay qabul qilinadi.

Sotuvchi yoki Sotib oluvchi tomonidan arizalar mavjud emasligi yoxud ular tomonidan Arbitraj komissiyasiga ariza taqdim qilish muddatlariga rioya qilinmasligi mazkur Shartnoma majburiyatlarini bajarish bo'yicha o'zaro e'tirozlar mavjud emasligi sifatida baholanadi.

4.4. Taraflar Shartnoma bo'yicha majburiyatlarining bajarilishidan qat'iy nazar, birja foydasiga vositachilik yig'imlarini to'lashlari shart.

5. Taraflarning javobgarligi.

5.1. Taraflarning biri tomonidan mazkur Shartnoma shartlari bajarilmagan taqdirda, HKKPda aybdor Tarafning shaxsiy hisobvarag'idagi pul mablag'laridan jarima undiriladi va mazkur Shartnoma summasidan belgilangan zakalat puli miqdoridagi summa zarar ko'rgan Taraf hisobiga o'tkaziladi, mazkur Shartnoma esa bekor qilingan hisoblanadi.

5.2. Tovar to'liq yetkazib berilmagan taqdirda, Sotuvchi Sotib oluvchiga HKKPda Sotuvchining shaxsiy hisob varag'idagi pul mablag'laridan mazkur Shartnoma summasidan belgilangan zakalat pullari miqdorida jarima to'laydi. Jarima to'lovi Sotuvchini tovar to'liq yetkazib berilmaganligi oqibatida yetkazilgan zararlar o'rni qoplash majburiyatidan ozod qilmaydi.

5.3. Yetkazib berilgan tovar standartlarga, texnik shartlarga, namunalarga (etalonlarga), sifati, turi va navga mansubligi bo'yicha boshqa majburiy shartlarga muvofiq bo'lmagan taqdirda, Sotib oluvchi qonunchilikda belgilangan tartibda tovarni qabul qilib olishdan bosh tortish, Sotuvchidan tegishli sifatga, turiga va navga ega bo'lmagan tovar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olish yoki to'langan summalarning qaytarilishini talab qilish huquqiga ega.

5.4. Mazkur Shartnoma bilan belgilangan yetkazib berish muddatida (davrida) tovar yuklab olib chiqilmaganligi uchun, shuningdek tovarni qabul qilib olishni asossiz rad qilganligi uchun Sotib oluvchi Sotuvchiga HKKPda shaxsiy hisobvarag'idagi pul mablag'laridan mazkur Shartnoma summasidan belgilangan zakalat pullari miqdorida jarima to'laydi. Jarima to'lovi Sotib oluvchini yuklab olib chiqilmagan (o'z muddatida qabul qilib olinmagan) tovarning kechiktirilishi oqibatida yetkazilgan zararlar o'rni qoplash majburiyatidan ozod qilmaydi.

5.5. Agar tovar maxsus qutilarda yetkazilishi yoki qadoqlanishi lozim bo'lsa va tovar qutilarsiz va/yoki qadoqlanmay yetkazilsa, sotib oluvchi qonunchilikda belgilangan tartibda Sotuvchidan mazkur tovarlar qiymatining 5% miqdorida jarima undirishga xaqli.

5.6. Brokerning mazkur Shartnomani imzolashdan va /yoki uni belgilangan muddatda ro'yxatdan o'tkazish uchun filial makleriga (savdo maydonchasi ro'yxatdan o'tkazuvchisiga) topshirishdan bosh tortganligi uchun Brokerdan Birja tomonidan belgilangan miqdorda jarima undiriladi.

5.7. HKKPdan to'langan bitimlar reyestri olinmasdan Sotuvchi tomonidan mahsulotlar yuklab jo'natilgan taqdirda, Birja Sotib oluvchi tomonidan Shartnoma bo'yicha majburiyatlar insofsiz bajarilganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

5.8. Shartnomaning 3.5-bandida qayd etilgan shartlar buzilgan taqdirda, Birja ehtimoldagi zararlar yuzaga kelganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

6. Nizolarni hal qilish.

6.1. Birja bitimi bajarilmasligi yoki tegishli darajada bajarilmasligi bilan bog'liq nizolalar birjaning Arbitraj komissiyasi yoki sud tomonidan hal qilinadi.

6.2. Taraflar, O'zRTXB AJda Birja savdo qoidalari muvofiq, Birja Arbitraj komissiyasining Taraflar o'rtasida yuzaga kelgan va sifat bilan bog'liq bo'lmagan nizolarni ko'rib chiqish va qaror chiqarish huquqiga ega ekanligini e'tirof etadilar.

6.3. Arbitraj komissiyasi qarorida norozi bo'lgan taraf nizoni qonunda belgilangan tartibda hal qilish huquqiga ega.

7. Fors-major.

7.1. Mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning qisman yoki to'liq bajarilmaganligi yengib bo'lmaydigan kuchlar, ya'ni favqulodda va bu holatda bartaraf etib bo'lmaydigan vaziyatlar (fors-major), qonun hujjatlari qabul qilinishi yoki har qanday o'zgarishlari, dasturiy ta'minotning ishga yaroqsizligi yoki texnik sabablar bo'yicha to'xtatib qo'yilish holatlari, elektr energiyasining o'zgaruvchanligi yoki uzib qo'yilishi oqibatida yuz bergan taqdirda, Taraflar mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarining qisman yoki to'liq bajarilmaganligi uchun javobgarlikdan ozod qilinadilar.

8. Shartnomaning amal qilish muddati

8.1. Mazkur Shartnomaning Sotuvchi brokeri va Sotib oluvchi brokeridagi nusxalari Birja filiali makleri (savdo maydoncha registratori) tomonidan rasmiylashtirilgan (imzolangan va tasdiqlangan) paytdan boshlab qonuniy kuchga kiradi.

Shartnoma Sotuvchi brokeri va Sotib oluvchi brokeri uchun ikki nusxadan jami to'rt nusxada tuzildi, har bir nusxa bir xil yuridik kuchga ega.

Sotuvchi brokeri va/yoki Sotib oluvchi brokeri nusxalari ro'yxatdan o'tkazilmagan taqdirda, mazkur Shartnoma tuzilmagan deb hisoblanadi.

Taraflar (vakolatli vakillari) imzolari:

Sotib oluvchi (Sotuvchi) nomidan va uning topshirig'i bo'yicha Broker _____	M.O'.
Makler "O'zRTXB" AJ (filial makleri, savdo maydonchasi ro'yxatdan o'tkazuvchisi) M.O'.	